KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY

AXBOROT
MEMOSI



EMITENTLARNING YANGI REYTINGI

www.kapdepo.uz

Sentabr, 2026

O‘zbekistonda emitentlar reytingi joriy etiladi: ommaviy kompaniyalar qanday baholanadi?

2026-yil 17-sentabrda qimmatli qog‘ozlar emitentlari reytingini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ro‘yxatdan o‘tkazildi. Hujjat O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2026-yil 25-avgustdagi 26-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Nizom 2026-yil 18-dekabrdan kuchga kiradi.

Reyting emitentlarning qimmatli qog‘ozlar bozori, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishini aks ettiradi. Natijalar hisobot choragi yakunlanganidan keyingi ikkinchi oyning dastlabki o‘n kunligida Yagona korporativ axborot portalida ILMA tomonidan e’lon qilinadi. Emitentlar reyting natijalari haqida shaxsiy kabinet orqali xabardor qilinadi.

Nimalar baholanadi?

Reyting emitent tomonidan yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklar asosida hisoblanadi. To‘plangan ballar qancha ko‘p bo‘lsa, reyting kategoriyasi shuncha past bo‘ladi.

E’lon qilinmagan hisobot uchun 15 ball beriladi. Har bir oshkor etilmagan muhim fakt uchun 5 ball hisoblanadi, biroq ushbu mezon bo‘yicha jami 15 balldan oshmaydi.

Shuningdek, quyidagilar ham hisobga olinadi:

- dividendlar yoki kuponlar to‘lanmaganligi aniqlangan holatlar;
- noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot taqdim etilishi;
- aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi;
- ILMA tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik buzilgan deb topilgan murojaatlar;
- ILMA ko‘rsatmalari yoki qarorlarining bajarilmasligi.

Dividendlar yoki kuponlar to‘lanmasligi, noto‘g‘ri axborot taqdim etilishi va korporativ qonunchilik buzilishi uchun har bir holat bo‘yicha 5 balldan beriladi. Bunda har bir mezon bo‘yicha maksimal ball 10 ballni tashkil etadi.

Qonunchilik buzilishi aniqlangan murojaatlar bo‘yicha 1–3 ta murojaat uchun 5 ball, 4 ta va undan ortiq murojaat uchun 10 ball hisoblanadi. Eng katta ulush ILMA ko‘rsatmalari yoki qarorlarini bajarmaslikka berilgan. Bunday buzilish uchun 30 ball belgilanadi. Reyting ballarining umumiy soni 100 balldan oshmaydi. Hisob-kitobda yillik hisobotni taqdim etish natijalari ham hisobga olinadi.

Emitentlar qanday kategoriyalarni oladi?

Nizomda reytingning to‘rtta kategoriyasi belgilangan:

Kategoriya	Ballar
A	0-10
B	15-25
C	30-60
D	65-100

“A” va “B” kategoriyalari avtomatik tarzda tasdiqlanadi. “C” va “D” kategoriyalari uchun esa ILMA reyting hisoblangan ma’lumotlarning to‘g‘riligini qo‘shimcha tekshiradi. Shunday qilib, reyting tegishli davrda emitent tomonidan yo‘l qo‘yilgan va qayd etilgan qonunbuzarliklar hamda talablarning bajarilmagan holatlari sonini ko‘rsatadi.

Yangi reyting kredit reytingidan nimasi bilan farq qiladi?

Mazkur Nizom asosidagi emitentlar reytingi kredit reytingi hisoblanmaydi. Kredit reytingi tashkilotning kreditga layoqatliligini va qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyatini baholaydi. ILMAning yangi reytingi esa boshqa mezonlar asosida shakllantiriladi: axborotni oshkor qilish, qimmatli qog‘ozlar bozori va aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilish, dividendlar va kuponlarni to‘lash, axborotning ishonchliligi hamda regulyator talablarini bajarish. Shu sababli, ushbu ikki ko‘rsatkich emitent faoliyatining turli jihatlarini baholaydi.

Qanday choralar ko‘rilishi mumkin?

Reyting faqat axborot berish xususiyatiga ega emas. Turli kategoriyalar uchun turli choralar nazarda tutilgan.

“B” kategoriyasi uchun shaxsiy kabinet orqali ogohlantirish beriladi.

“C” kategoriyasi bo‘yicha ILMA qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishi mumkin. Agar buzilishlar hisobotlar yoki muhim faktlarni taqdim etmaslik yoxud oshkor qilmaslik bilan bog‘liq bo‘lsa, kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar Yagona korporativ axborot portalida korporativ harakatlarni amalga oshirish cheklanishi mumkin. Bunda avval taqdim etilmagan yoki oshkor qilinmagan axborotni oshkor qilish imkoniyati saqlanib qoladi.

“D” kategoriyasi uchun qo‘shimcha ravishda korporativ obligatsiyalarni muddatidan oldin so‘ndirish hamda foizlar yoki kuponlarni 30 kun ichida to‘lash talabi qo‘yilishi mumkin. Shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar muomalasini to‘xtatib turish ham mumkin.

Choralarni tanlashda ILMA buzilishlarning xususiyati va tizimliligini, shuningdek investorlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararni hisobga oladi.
Bu emitentlar uchun nimani anglatadi?

Bu emitentlar uchun nimani anglatadi?

Nizom kuchga kirgach, emitentlar axborotni o‘z vaqtida oshkor qilish, dividendlar va kuponlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish, korporativ tartib-taomillarga rioya qilish hamda ILMA ko‘rsatmalarini bajarishni nazorat qilishi kerak bo‘ladi.

Reyting har chorakda shakllantiriladi. Shu sababli yo‘l qo‘yilgan buzilishlar keyingi reyting natijalarida ham aks etishi mumkin.

Bunda emitent reyting e’lon qilinganidan keyin besh ish kuni ichida ILMAga shikoyat qilishi mumkin. Bunday murojaatni ko‘rib chiqish muddati o‘n ish kunini tashkil etadi. Reytingning o‘zi va choralar qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar ham sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Yangi tartib emitentlarning axborotni oshkor qilish va qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishini baholashning yagona mexanizmini belgilaydi. Natijalar ochiq e’lon qilinadi, past kategoriyalar uchun esa aniq choralar nazarda tutilgan.

KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY



+998 55-511-02-02
www.kapdepo.uz
info@kapdepo.com
@Kapdepo
Kapdepo

Mazkur material “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ tahlilchisi Kamronbek Yo’ldoshev tomonidan tayyorlangan. Kompaniya ushbu hisobotda har qanday qimmatli qog'oz yoki kompaniyaga nisbatan ifodalangan barcha pozitsiyalar tahlilchining har qanday tahlil qilingan kompaniya yoki qimmatli qog’oz bo'yicha shaxsiy qarashlarini aks ettirishini e'lon qiladi. Har bir tahlilchi va/yoki har qanday tahlilchi bilan bog'langan shaxslar bozor ma'lumotlarini to'plash, shakllantirish va sharhlash uchun treyderlar va boshqa xodimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin.

Tahlilchilarning hech biri, kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu Hisobotdan yoki uning mazmunidan har qanday foydalanish natijasida yuzaga keladigan yoki ushbu Hisobot bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday zararlar uchun hech qanday tarzda javobgar bo'lmaydi. Har bir tahlilchi va/yoki unga aloqador shaxslar ushbu Hisobotga muvofiq choralar ko‘rishi yoki ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlardan, shuningdek, ushbu Hisobot tuzilgan tahliliy ish natijalaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar har qanday sotib oluvchi yoki boshqa shaxs tomonidan qimmatli qog'ozlarga nisbatan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Ushbu Hisobot kompaniya biznesi, uning aktivlari yoki qimmatli qog'ozlari qiymatini baholash emas.Olingan mukofotning hech bir qismi ushbu Hisobotda bildirilgan muayyan tavsiya yoki fikr bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq emas va kelgusida ham bog‘liq bo‘lmaydi. Tahlilchilarning ish haqi “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ mijozlari bo‘lgan investorlarga imtiyozlar berishga qaratilgan faoliyat va xizmatlarga qarab belgilanadi.

“KAPITAL-DEPOZIT” MChJning barcha xodimlari singari, tahlilchilar ham “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ rentabelligiga qarab haq oladilar, bu kompaniya bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa faoliyatdan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Tahlilchilar yoki ularning affillangan kompaniyalari yoki boshqa shaxslar sotuvga qo'yilgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha anderrayting guruhining a'zolaridir yoki bo'lishi mumkin. Tahlilchilar kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini kelgusida ommaviy joylashtirishda qatnashish huquqiga ega.

Ushbu Hisobotda keltirilgan har qanday mulohazalar yoki fikrlar ushbu Hisobot nashr etilgan paytda dolzarb hisoblanadi. Agar ushbu Hisobotning sanasi eskirgan bo'lsa, qarashlar va mazmun tahlilchining hozirgi fikrini aks ettirmasligi mumkin. Ushbu ma'lumot moliyaviy yoki tijorat xarakterdagi joriy voqealarning to'liq xulosasi emas va shuning uchun foydalanilmasligi kerak. “Kapital-Depozit” MChJ O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorida qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining quyidagi litsenziyalari asosida faoliyat yuritayotganligi haqida xabar beradi: brokerlik va depozitarlik faoliyati uchun 27.04.2015-yildagi 1196-son; investitsiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish uchun 27.04.2015 yildagi 1197-son; investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun 2017-yil 29-dekabrdagi 1296-son.